

TIJORAT BANKLARIDA AKTIVLARI SAMARADORLIGI VA UNING TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH

Muminova Asalxon Yakubovna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarida aktivlar turlari, ularning tasnifi, va ular bilan bog'liq jarayonlarning muhim jihatlari ko'rib chiqildi. Shuningdek, aktivlarni optimallashtirish va bank faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi. Tijorat banklarida aktivlarni tahlil qilish, bank faoliyatini yanada samarali boshqarish va resurslardan oqilona foydalanish maqsadida amalga oshiriladi. Ushbu mavzu bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy-nazariy yondashuvlari turli nuqtai nazarlardan tahlil qilingan bo'lib, ular orasida bank moliyasining nazariy asoslari, amaliy tajribalar va innovatsion yondashuvlar mavjudligi o'rganildi.

Kalit so'zlar: Bank aktivlari, qiymatli qog'ozlar, kredit, mikroqarz, pul mablag'lari, overdraft, lizing, factoring

Аннотация. В данной статье рассмотрены основные виды расходов в коммерческих банках, их классификация, важные аспекты связанных с ними процессов. Также разработаны предложения, направленные на оптимизацию расходов и повышение эффективности работы банка. Проводится в коммерческих банках с целью анализа классификаций расходов, более эффективного управления банковской деятельностью и рационального использования ресурсов. С разных точек зрения были проанализированы научно-теоретические подходы отечественных и зарубежных ученых по данной теме, среди которых были изучены теоретические основы банковского финансирования, практический опыт и инновационные подходы.

Ключевые слова: Активы банка, ценная бумага, кредит, банковские расходы, микрокредит, суммы денег, рентабельность, овердрафт, лизинг, факторинг

Annotation. This article examines the types of assets in commercial banks, their classification, and important aspects of related processes associated with them. Proposals aimed at optimizing assets and increasing the efficiency of banking activities were also developed. On this topic, the scientific and theoretical approaches of local and foreign scientists were analyzed from different points of view and among them, the existence of theoretical foundations of bank finance, practical experiences and innovative approaches were studied.

Keywords: bank assets, precious papers, credit, microcredit, amounts of money, lease, factoring, financial stability, overdraft.

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy sektorni rivojlantirish va moliyaviy tartibga solish tizimini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da bank tizimida samaradorlik, shaffoflik va raqobatbardoshlikni oshirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan¹.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan raqamli islohotlar kontekstida, aktivlarni boshqarishda raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan tizimlar va ma’lumotlarga asoslangan qaror qabul qilishning ahamiyati ortib bormoqda. Bunda “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasi” (2020–2030)² va “Bank tizimini raqamlashtirish strategiyasi” asosiy dasturiy hujjatlar hisoblanadi.

Mazkur ishning obyekti — “Ipoteka” ATBning moliyaviy faoliyati, predmeti esa bank aktivlari samaradorligi va uni baholash hamda takomillashtirish usullari hisoblanadi. Tadqiqot maqsadi — “Ipoteka” ATBning faoliyatida bank aktivlari samaradorligini tahlil qilish, ularni boshqarish mexanizmlarini o‘rganish va samaradorlikni oshirish uchun takliflar ishlab chiqishdir.

“Ipoteka” ATBning O‘zbekiston bank tizimining barqaror ishtirokchilaridan biri bo‘lib, uning faoliyati so‘nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi. Bankning yillik moliyaviy hisobotlarini tahlil qilish natijasida bank aktivlarining umumiy hajmi ortganligi va kredit portfeli sifatining yaxshilanganligi ko‘rindi. Biroq, ayrim ko‘rsatkichlarda pasayishlar va risklarning ortishi ham qayd etildi, bu esa bankning aktivlar samaradorligini yanada oshirish zaruratini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar sharhi.

“Bank aktivlarining samarali foydalanish ko‘rsatkichlar tahlilini takomillashtirish” doirasida xarajatlar quyidagi jihatlardan baholanadi:

- Xarajatlar tuzilmasi – aktivlarni shakllantirish va boshqarish bilan bog‘liq xarajatlar ulushi aniqlanadi.

- Xarajatlar rentabellikka ta’siri – xarajatlar hajmining ROA va NIM kabi ko‘rsatkichlarga ta’siri o‘rganiladi.

- Xarajatlar optimallashtirish imkoniyatlari – ABC (Activity-Based Costing) kabi metodlar orqali samarasiz xarajat manbalari aniqlanadi.

- Raqamli texnologiyalar roli – xarajatlarni kamaytirish va aktivlar aylanish tezligini oshirishga xizmat qiluvchi texnologik yechimlar baholanadi.

Shu tarzda, bank xarajatlarini tizimli tahlil qilish nafaqat moliyaviy intizomni mustahkamlaydi, balki aktivlar rentabelligini oshirish, risklarni kamaytirish va

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022). “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi farmon, PF–60, 28.01.2022. <https://lex.uz/docs/5841063>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020). «Raqamli O‘zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida [Farmon PF-6079, 05 oktabr]. Toshkent: <https://lex.uz/docs/5030957>

bankning umumiy samaradorligini ta'minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi³. Frederic S. Mishkin (Columbia University, AQSh) o'zining "The Economics of Money, Banking, and Financial Markets" asarida bank aktivlari tarkibini samarali boshqarish bankning likvidligi, rentabelligi va risk profilini muvozanatlashtirishda hal qiluvchi omil ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, aktivlarni optimal taqsimlash (asset allocation) orqali bankning sof foiz marjasi (NIM) va umumiy foydasi sezilarli darajada oshirilishi mumkin. Anthony Saunders (New York University) va Marcia Millon Cornett "Financial Institutions Management" asarida bank aktivlarini boshqarishda "risk-return trade-off" konsepsiyasiga urg'u beradi. Ularning yondashuvida aktivlar tarkibini tahlil qilishda kredit portfeli sifati, investitsiya qimmatli qog'ozlarining diversifikatsiyasi va likvid aktivlar ulushi asosiy ko'rsatkichlar sifatida olinadi. Kolin Drury (University of Huddersfield, Buyuk Britaniya) boshqaruv hisobi nuqtai nazaridan bank aktivlarining samaradorligini oshirish uchun xarajatlarni aniq tasniflash va ularni faoliyat yo'nalishlari bo'yicha bog'lash (ABC – Activity-Based Costing) zarurligini ta'kidlaydi.

Tijorat banklari aktivlarining asosiy toifalari va tavsifi

Aktivlar toifasi	Qisqacha tavsifi	Ilmiy manba va olimlarning fikrlari
Naqd pul va Markaziy bankdagi mablag'lar	Bankning eng likvid aktivlari bo'lib, kundalik operatsiyalar va majburiyatlarni bajarish uchun ishlatiladi.	Rose & Hudgins (2013) ta'kidlashicha, yuqori likvid aktivlar bankning to'lovga qobiliyatligini ta'minlaydi, lekin ortiqcha hajmi rentabellikni pasaytiradi.
Mijozlarga berilgan kreditlar	Bank daromadlarining asosiy manbai bo'lib, iqtisodiyotga moliyaviy resurslar yetkazib berish vazifasini bajaradi.	X. Abdullayev (2020) fikricha, kredit portfeli sifati bank aktivlaridan samarali foydalanishning eng muhim ko'rsatkichidir.
Investitsiyalar (qimmatli qog'ozlar)	Bankning ortiqcha mablag'larini qimmatli qog'ozlarga joylashtirish orqali daromad olish va likvidlikni boshqarish imkonini beradi.	Fabozzi (2015) nazariyasiga ko'ra, diversifikatsiyalangan investitsiya portfeli risklarni kamaytiradi va barqaror daromad ta'minlaydi.
Asosiy vositalar	Bankning moddiy aktivlari: bino, uskuna, texnologik infratuzilma va transport vositalari.	M. Yo'ldoshev (2022) asoslashicha, asosiy vositalarning modernizatsiyasi xizmat sifatini oshiradi va uzoq muddatli samaradorlikni ta'minlaydi.
Boshqa aktivlar	Oldindan to'langan xarajatlar, debitor qarzarlar, boshqa moliyaviy va nomoliyaviy aktivlar.	Kolin Druri (2013) fikricha, boshqa aktivlarni tahlil qilish bankning ichki rezervlarini aniqlashga yordam beradi.

Tahlil va natijalar:

Bugungi kunda bank aktivlarining samaradorligini tahlil qilish va ularni boshqarish jarayonida raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari hamda faoliyat samaradorligini o'lchovchi metrikalar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Aktivlar bankning asosiy ish yuritish vositasi bo'lib, ularning sifatli va samarali boshqarilishi bankning barqaror ishlashi va raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Shuning uchun bank aktivlarining samaradorligini baholash va ularni yanada takomillashtirish masalalari muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Aktivlar — kredit, mikroqarz, overdraft, lizing, faktoring, qimmatli qog'ozlar, investitsiyalar, boshqa banklardagi mablag'lar, olinishi lozim bo'lgan hisoblangan va (yoki) undirilmagan foizli va foizsiz daromadlar, bankning boshqa xususiy mulklari, bo'lib-bo'lib to'lash shaklida sotilgan mulklar, balansdan tashqari moddalar (chaqirib olinmaydigan kredit majburiyatlari, foydalanilmagan kredit liniyalari, akkreditivlar, kafolatlar) hamda kredit tavakkalchiligi mavjud .

Bank aktivlarining asosiy turlari:

- 1.Naqd pul va kassadagi mablaag'lar
- 2.Qisqa muddatli investitsiya
- 3.Kreditlar(qarzlar)
- 4.Qimmatli qog'ozlar
- 5.Asosiy vositalar.

Aktivlar sifatini tasniflash va ularni bank balansida aks ettirish bank va qarzdor o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlarini o'zgartirmaydi, shu jumladan shartnoma shartlariga muvofiq bank tomonidan asosiy qarz va unga hisoblangan foizlarni, shuningdek shartnoma shartlarini bajarmaganligi uchun jarima va penyalarni to'liq miqdorda qarzdordan undirish huquqini bekor qilmaydi.

Kreditlar bank aktivlarining asosiy qismini tashkil qiladi, ularning sifatini yaxshilash va risklarni kamaytirish bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, kredit portfelini diversifikatsiya qilish, mijozlar kredit qobiliyatini puxta baholash, monitoring va boshqaruvni takomillashtirish zarur.

2-jadval

Tijorat banklarning muammoli kreditlar to'g'risida ma'lumot

(mln.so'm)

№	Bank nomi	Muammoli kreditlar		
		2022	2023	2024
1	Agrobank	58 014	16 927	161 309
2	Xalq banki	113 371	87 729	208 735
3	Mikrokreditbank	42 753	6 294	276 743
4	Qishloqqurilishbank	31 763	19 056	251 614
5	Sanoatqurilishbank	68 907	36 647	114 691
6	Milliybank	34 139	239 596	609 230

7	Hamkorbank	2 013	800	3 142
8	Asakabank	17 099	23 748	98 051
9	Ipotekabank	57 802	47 856	56 047
10	Turonbank	35 436	40 550	21 259
11	Aloqabank	51 708	10 368	37 587
12	Kapitalbank	7 052	1 998	2 839
13	Savdogarbank	3 594	10 245	271
14	Trastbank	1 353	0	3 702

Xulosa.

Ipoteka bank OTP Group faoliyatida bank aktivlari samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, kredit portfelini boshqarishda raqamli vositalarni keng joriy qilish, kredit risklarini baholashni avtomatlashtirish.

Ikkinchidan, aktivlar tarkibini diversifikatsiya qilish va yuqori rentabellikka ega bo'lgan investitsion loyihalarga mablag' yo'naltirish.

Uchinchi, bankning likvidlik va kapital yetarliligini doimiy nazorat qilish uchun monitoring tizimini takomillashtirish.

To'rtinchidan, kadrlar malakasini oshirish va innovatsion bank mahsulotlarini yaratish jarayonlarini qo'llab-quvvatlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduqodirov, N. (2020). Tijorat banklarining moliyaviy faoliyatini tahlil qilish. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

2. Karimov, O., & Tursunov, S. (2019). Bank aktivlarini boshqarish va samaradorligini oshirish. Moliyaviy jurnal, 4(2), 45-58.

3. Mamatqulov, B. (2021). Bank menejmenti va moliyaviy boshqaruv. Toshkent: Moliyaviy akademiya nashriyoti.

4. Rashidov, A. (2018). Bank aktivlari va ularning iqtisodiy samaradorligi. Iqtisodiyot va moliya, 3(15), 23-30.

5. Вахабов, А.В., & Хажибакиев, Ш.Х. (2021). Тижорат банклари активлари самарадорлигини ошириш йўллари. Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар.